TOSHKENT VILOYATI BO‘KA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 15-avgust | 219-10-137-Q/24 | Bo‘ka tuman hokimligi

Bo‘ka tumani “Yangixayot” MFY, Navoiy ko‘chasi hududidan o‘tgan 500 metrlik avtomabil yo‘liga “to‘xtash va to‘xtab turish”ni taqiqlovchi (3,27-to`xtash taqiqlangan) yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida

Bo‘ka tuman IIB YHXB tomonidan berilgan murojaatni o‘rganib, tumanning “Yangixayot” MFY, Navoiy ko‘chasi hududidan o‘tgan 500 metrlik avtomobil yo‘lida avtomobillar tartibsizligi vujudga kelib, fuqarolar xavfsizligiga jiddiy sabab bo`layotganini inobatga olib, ushbu yo‘lda transport vositalari xarakat xavfsizligini hamda aholi havfsizligini ta`minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalari, “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi qonunning 7, 20-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunining 4, 6-moddalariga hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qaroriga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1. Bo‘ka tumani IIB YHXB tomonidan 2024-yil 8-iyul kuni berilgan murojaat xati inobatga olinsin.

2. Bo‘ka tumani yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (L.Saynazarov) tuman IIB YHXB boshlig‘i (Sh.Meyliev)larga, Bo‘ka tumani “Yangixayot” MFY, Navoiy ko‘chasi hududidan o‘tgan 500 metrlik avtomabil yo‘lining boshlanish joyidan boshlab Markaziy ko‘chasi bilan tutashgan qismiga qadar bo‘lgan masofaga, belgilangan tartibda, transport vositalari xarakat xavfsizligi hamda aholi havfsizligini ta‘minlash maqsadida “3.27–To‘xtash taqiqlangan” yo’l belgilarini o‘rnatsin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (J.Manazarov)ga ushbu hududda harakatlanuvchi transport vositalarining mazkur yo‘l belgilariga qat`iy rioya qilinishi hamda harakat xavfsizligini ta`minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (R.Qosimov) tuman “Xalq ovozi” gazetasi bosh muharriri (G.Yomg‘urova) bilan birgalikda qarorni tumandagi “Halq ovozi” gazetasida nashr etilishi va hokimlik rasmiy veb saytiga joylashtirilishini ta`minlansin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Saydullaev zimmasiga yuklansin.

Bo‘ka tumani hokimi **B.Begmatov**